ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

YANGI TUG'ILGAN CHAQALOQLARDA PERINATAL GIPOKSIYANING ETIOLOGIK OMILLARI, MARKAZIY ASAB TIZIMIGA TA'SIRI VA PROFILAKTIKASI

Niyozova Shaxinabonu Dilshodovna
Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti 4-kurs talabasi

Temirova Mohinur Sayfullo qizi
Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti 3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.21939321

Anotatsiya: Ushbu maqolada yangi tug'ilgan chaqaloqlarda perinatal gipoksiyaning rivojlanishiga olib keluvchi asosiy etiologik omillar hamda uning oldini olishning zamonaviy yondashuvlari, onaning ekstragenital va akusherlik kasalliklari, homila va platsentaga oid omillar, tug'ruq jarayonidagi asoratlarning perinatal gipoksiya rivojlanishidagi o'rni, uning markaziy asab tizimiga ta'siri va perinatal gipoksiya natijasida yuzaga keladigan patologik o'zgarishlar yoritib berilgan. Shuningdek, homiladorlikni sifatli kuzatish, xavf guruhlarini erta aniqlash va yangi tug'ilgan chaqaloqqa o'z vaqtida tibbiy yordam ko'rsatish orqali perinatal gipoksiya rivojlanishining oldini olish imkoniyatlari tahlil qilingan.
Kalit so'zlar: perinatal gipoksiya, yangi tug'ilgan chaqaloq, etiologik omil, xavf omillari, markaziy asab tizimi, gipoksik-ishemik ensefalopatiya, profilaktika, homila gipoksiyasi, neonatal yordam.

Аннотация:В статье рассматриваются основные этиологические факторы, приводящие к развитию перинатальной гипоксии у новорожденных, а также современные подходы к ее профилактике. Особое внимание уделяется роли экстрагенитальной и акушерской патологии матери, плодово-плацентарных факторов и осложнений в родах в развитии данного состояния, а также его влиянию на центральную нервную систему и возникающим при этом патологическим изменениям. Кроме того, анализируются возможности профилактики перинатальной гипоксии посредством качественного дородового наблюдения, раннего выявления групп риска и своевременного оказания медицинской помощи новорожденному.
Ключевые слова: перинатальная гипоксия, новорожденный, этиологический фактор, факторы риска, центральная нервная система, гипоксически-ишемическая энцефалопатия, профилактика, гипоксия плода, неонатальная помощь.

Abstract: This article examines the primary etiological factors leading to the development of perinatal hypoxia in newborns and modern approaches to its prevention. It highlights the roles of maternal extragenital and obstetric conditions, fetal and placental factors, and labor complications in the development of perinatal hypoxia, as well as its impact on the central nervous system and the resulting pathological changes. Additionally, the article analyzes opportunities to prevent perinatal hypoxia through high-quality prenatal monitoring, early identification of high-risk groups, and the timely provision of medical care to the newborn.

Keywords: perinatal hypoxia, newborn, etiological factor, risk factors, central nervous system, hypoxic-ischemic encephalopathy, prevention, fetal hypoxia, neonatal care.

Kirish. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda gipoksiya - bu perinatal davrda organizm to'qimalarining kislorod bilan yetarli ta'minlanmasligi natijasida yuzaga keladigan patologik holat bo'lib, neonatal amaliyotda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Gipoksiya homila rivojlanish jarayonida yoki tug'ruq vaqtida yuzaga kelib, chaqaloq organizmning bir qator muhim organ va tizimlariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Perinatal gipoksiya kelib chiqish sabablari quyidagilar:

Antenatal gipoksiya - homiladorlik davrida rivojlanadi.

Onaga bog'liq omillar: anemiya, arterial gipertenziya, preeklampsiya va eklampsiya, infeksiyalar, onaning noto'g'ri ovqatlanishi, nafas tizim kasallikari.(ekstragenital kasalliklar)

Yo'doshga (platsenta) bog'liq omillar: fetoplatsentar yetishmovchilik, platsentaning muddatidan oldin ko'chishi, yo'ldoshda qon aylanish buzilishi, platsentaning noto'g'ri joylashuvi.(akusherlik kasalliklari)

Kindik ichakka bog'liq omillar: kindik ichagining tugun hosil qilishi, kindik tomirlari rivojlanish nuqsonlari, kindik ichagining siqilishi.

Homilaga bog'liq omillar: tug'ma rivojlanish nuqsonlari, xromosomal kasalliklar, homilaning o'sishdan orqada qolishi, gemolitik kasalliklar.

Intranatal gipoksiya - tug'ruq jarayonida rivojlanadi. Uning asosiy sabablari tug'ruq faoliyatining buzilishi, kindik ichagining bo'yinga o'ralishi yoki siqilishi, yo'doshning vaqtidan oldin ko'chishi, mekoniy aspiratsiyasi, homilaning noto'g'ri kelishi hamda tug'ruq vaqtida homilaga kislorod yetkazilishining keskin kamayishi hisoblanadi.

Perinatal gipoksiyaning yengil alomatlari-

Tug'ilgandan so'ng 1 va 5-daqiqalarda chaqaloqning holati Apgar shkalasi bo'yicha baholanadi:

Yengil daraja (Apgar 6-7 ball) bōlsa quyidagi belgilarga qarab aniqlanadi.:

Terining rangi: Akrotsianoz (qo'l va oyoq panjalarining ko'karishi), tana terisi pushti bo'ladi.

Nafas: Birinchi daqiqada mustaqil va ovoz chiqarib nafas oladi, lekin nafas biroz yuzaki bo'lishi mumkin.

Mushak tonusi: Biroz pasaygan yoki me'yorda.

Reflekslar: Saqlangan, lekin biroz susaygan bo'lishi mumkin.

O'rtacha daraja (Apgar 4-5 ball) bōlgandagi belgilar:

Terining rangi: Umumiy tsianoz (butun tana ko'kargan).

Nafas: Yuzaki, aritmik va tartibsiz.

Yurak urishi: Bradikardiya (daqiqasiga 100 dan kam) yoki taxikardiya.

Mushak tonusi: Keskin pasaygan (gipotoniya).

Reflekslar: So'rish va tutish reflekslari juda sust.

Og'ir darajada (Apgar 1-3 ball) esa:

Terining rangi: Keskin oqargan (terining oqarishi) yoki to'q ko'k tusda.

Nafas: Apnoe (nafas to'xtashi) yoki siyrak, shovqinli ("gasping" tipidagi) nafas.

Yurak urishi: Keskin bradikardiya (daqiqasiga 80 dan kam), tonlar bo'g'iq.

Mushak tonusi: Atoniya (mushaklar mutlaqo bo'shashgan).

Reflekslar: Mutlaqo yo'q, kindik arteriyasida pulsatsiya sezilmaydi.Antenatal gipoksiya (Homiladorlik davrida)

Perinatal gipoksiyaning paydo bo'lish vaqtiga ko'ra alomatlari:

Homila harakati: Boshida homilaning haddan tashqari faol, tartibsiz harakat qilishi, keyinchalik harakatlarning keskin kamayishi yoki to'xtashi.

Kardiotokografiya (KTG) va UTD ko'rsatkichlari bo'yicha :fetal yurak urish maromining buzilishi (doimiy bradikardiya yoki taxikardiya), yo'ldosh qon aylanishining pasayishi natijasida aniqlanishi mumkin.

Intranatal gipoksiya (Tug'ruq jarayonida)

Tug'ruq dardlari va kuchanish paytida homila yurak urishi sekinlashishi va qayta tiklanmasligi.

Qog'onoq suvi: Homila atrofi suyuqligida mekoniy (axlat) paydo bo'lishi sababli suvning yashil yoki to'q tusga kirishi orqali yuzaga chiqishi mumkin.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda perinatal patologiyasi muammolarning namoyon bo'lishidan biri markaziy asab tizimining perinatal lezyonlari bo'lib, ular keyingi moslashuv va bir qator kasalliklarning paydo bo'lishida etakchi rol o'ynaydi. Perinatal patologiyasi bo'lgan bolalar ko'pincha kasal bo'lib, surunkali kasallik yoki nogiron bo'lib qolish imkoniyatiga ega. Bolalik nogironligi tarkibida asab tizimining shikastlanishi 50% ni tashkil qiladi va 70-80% hollarda perinatal omillar ta'sirida yuzaga keladi.

Perinatal gipoksiyaning markaziy asab tizimiga ta’siri. Perinatal gipoksiya yangi tug’ilgan chaqaloqlarda markaziy asab tizimining perinatal shikastlanishiga olib keluvchi asosiy etiologik omillardan biri bo’lib hisoblanadi. Asosan buning natijasida gipoksik-ishemik ensefalopatiya kelib chiqadi. Bu kasallik miyada qon oqimining pasayishi va miyaga kislorod yetarli darajada yetkazib berilmasligi natijasida kelib chiqadigan, ko’pincha perinatal davrda uchraydigan yangi tug’ilgan chaqaloqlarning miya shikastlanishining halokatli shakli hisoblanadi.

Yangi tug’ilgan chaqaloqlarda gipoksik-ishemik ensefalopatiya asosan perinatal giposiyadan kelib chiqadi, bu holat gaz almashinuvining buzilishi bilan tavsiflanadi, bu esa tug’ilish paytida kislorod yetarli darajada yetlazib berilmasligiga va miya perfuziyasining pasayishiga olib keladi. Eng ko’p uchraydigan etiologik omillar homila kislorod bilan ta’minlashini buzadigan o’tkir akusherlik asoratlaridir. Bularga platsenta ajralishi, kindik ichagining prolapsasi va bachadon yorilishi kiradi, bularning barchasi platsenta qon oqimini to’satdan to’xtatishi va yangi tug’ilgan chaqaloq miyasiga gipoksik-ishemik shikastlanishni keltirib chiqarishi mumkin. Og’ir holatlarda uzoq muddatli kislorod tanqisligi metabolik atsidozga va keng tarqalgan neyron disfunksiyasiga olib keladi, bu esa ong, reflekslar va harakat tonusining buzilishiga olib keladi.

Perinatal gipoksiyaning oldini olish. Perinatal gipoksiya yangi tug’ilgan chaqaloqlarda og’ir asoratlar va nogironlikka olib kelishi mumkin bo’lgan muhim patologik holat hisoblanadi. Shu sababli uning profilaktikasi homiladorlikning ilk davridan boshlanishi zarur.

Homilador ayollarni muntazam antenatal kuzatish perinatal gipoksiyaning oldini olishning asosiy omilidir. Onadagi anemiya, arterial gipertenziya, yurak va nafas tizimi kasalliklarini o’z vaqtida aniqlash va davolash muhim ahamitaga ega. Sog’lom ovqatlanish, temir va vitamin preparatlarini qabul qilish homilaning kislorod bilan ta’minlashini yaxshilaydi.

Homila holatini ultratovush tekshiruvi(UTT), kardiotografiya(KTG) va Doppler tekshiruvi yordamida muntazam baholash zarur. Tug’ruq faoliyatini to’g’ri boshqarish, homila yurak urishini muntazam nazorat qilish, kindik ichagi siqilishi yoki platsenta ko’chishi kabi asoratlarni erta aniqlash intranatal gipoksiyani oldini oladi. Zarur hollarda operativ tug’ruq usullarini qo’llash kerak.

Tarqalish darajasi: Muddatida tug'ilgan chaqaloqlar orasida perinatal gipoksiya yengil va o'rta shakllari bilan birga 1–3% holatlarda uchraydi.

Chala tug'ilgan chaqaloqlarda: Muddatdan ilgari tug'ilgan bolalar orasida bu mezon ko'rsatkichi keskin ortib, 15–20% gacha yetishi mumkin.

Perinatal gipoksiya bilan tug'ilgan chaqaloqlarga neonatal yordam. Neonatal yordam imkon qadar erta, tizimli va amaldagi klinik tavsiyalar asosida ko'rsatilishi kerak. Neonatal yordamning asosiy maqsadi chaqaloqning hayotiy muhim funksiyalarini barqarorlashtirish, gipoksik shikastlanishlarning oldini olish hamda asoratlar rivojlanish xavfini kamaytirishdan iborat.

Tug'ilgandan so'ng chaqaloqning umumiy holati Apgar shkalasi bo'yicha baholanadi. Zaruratga qarab nafas yo'llari o'tkazuvchanligi ta'minlanadi, tana harorati me'yorda saqlanadi va kislorod terapiyasi yoki sun'iy nafas oldirish qo'llaniladi. Og'ir holatlarda neonatal reanimatsiyaga muvofiq yurak faoliyatini tiklash va dori vositalari bilan intensiv davolash choralari amalga oshiriladi. Neonatal davrda chaqaloqning nafas olish faoliyati, yurak urish tezligi, arterial qon bosimi, qondagi kislorod saturatsiyasi, glukoza darajasi hamda kislota - ishqor muvozanati muntazam nazorat qilinadi. Gipiksik-ishemik ensefalopatiya rivojlanish xavfi yuqori bo'lgan chaqaloqlarda ko'rsatmalar mavjud bo'sa, terapevtik gipotermiya usuli qo'llanishi kerak.

O'z vaqtida va sifatli ko'rsatilgan neonatal yordam perinatal gipoksiya oqibatlarini kamaytirish, chaqaloqlarni hayotiy ko'rsatkichlarini yaxshilash hamda uning keyingi jismoniy va psixonevrologik rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Perinatal gipoksiya yangi tug'ilgan chaqaloqlarda kasallanish va o'limning asosiy sabablaridan biri bo'lib, uning rivojlanishida onaga, homilaga, yo'ldoshga va tug'ruq jarayoniga bog'liq ko'plab etiologik omillar muhim o'rin tutadi. Kislorod yetishmovchiligi, ayniqsa, markaziy asab tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatib, gipoksik-ishemik ensefalopatiya, nevrologik nuqsonlar hamda bolaning keyingi jismoniy va psixomotor rivojlanishida turli buzilishlarga olib kelishi mumkin.

Perinatal gipoksiyani erta aniqlash, homilador ayollarni muntazam antenatal kuzatish, xavf omillarini o'z vaqtida bartaraf etish hamda yangi tug'ilgan chaqaloqqa o'z vaqtida neonatal yordam ko'rsatish ushbu patologiyaning og'ir oqibatlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy diagnostika va davolash usullarini amaliyotga keng joriy etish perinatal gipoksiya bilan bog'liq kasallanish va nogironlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Polin R. A, Fox A. A. Fetal and Neonatal Physiology. Elsevier.
2. Samarqand davlat tibbiyot universiteti. Perinatal davrda yuzaga kelgan yangi tug'ilgan chaqaloqlar markaziy asab tizimining gipoksik zararlanishning ayrim jihatlari. Samarqand; 2025
3. Volpe J. J. Volpe's Neurology of the Newborn. 7th ed. Philadelphia: Elsevier;2024
4. Sweet D.G., et al. Neonatal encephalopathy and hypoxic-ischemic encephalopathy: the state of the art. Pediatric Research. 2025.
5. Samarqand davlat tibbiyot universiteti. Surunkali homila ichi gipoksiyasi fonida tug'ilgan chaqaloqlarda asab tizimining perinatal zararlanishi. Samarqand; 2024.
6. Xodjayeva S.A. Perinatal davrda yuzaga kelgan yangi tug'ilgan chaqaloqlar markaziy asab tizimining gipoksik zararlanishining ayrim jihatlari // Doktor axborotnomasi. – 2025.